

O'SMIRLIK YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI

Tojiboyeva Gulnora Davlatovna

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani

15-maktab amaliyotchi psixologi

gulnoratojiboyeva1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8002710>

Annotatsiya: ushbu maqolada O'smirlik yoshidagi O'quvchilarning xulq-atvor xususiyatlari, undagi O'zgarishlar, inqirozlar kabi muammoli masalalarning kelib chiqishi, dunyoqarashining shakllanishi, "men" tushunchasining yuzaga kelishi hamda yechimlari haqida yoritib O'tilgan.

Kirish so'zlar: ta'lim, faollik, O'smirlik, O'qituvchi, tarbiyachi, axloq, shaxslararo munosabatlar, psixologik mexanizmlar, guruh, psixik, tejamkorlik, dunyoqarash.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan choralar tarkibida, xususan O'smirlarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarga kirishishda empatiya hissini rivojlantirish, shaxs sifatida O'zini to'g'ri baholash, jamiyatda O'z o'rnini topishida yordam berish hamda axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi.

Shaxsning faolligi, uning jamoa faoliyatida ishtiroki uning O'zini-O'zi tarbiyalashga intilishi, O'zini-O'zi baholash darajasiga bog'liqdir. O'zi haqida keraksiz xech nimaga yaramaydigan sub'ekt deb O'ylaydigan odam taqdirini yaxshilash uchun istar-istamas kuch-g'ayrat sarflaydi. Aksincha, O'zlarini yuqori baholaydigan odamlar ko'pincha juda qattiq ishlashga moyildirlar. Ular yahshi ishlamaslikni o'zlariga munosib emas deb hisoblaydilar.

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning O'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana O'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni O'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf O'quvchilarini.

O'smir O'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.

Kichik va katta yoshdagi maktab O'quvchilariga qaraganda O'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda O'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini xarakterga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. O'smirlik yoshiga hos bo'lgan psixologik hususiyatlarini o'rgana turib, O'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, O'z- O'zini anglash layoqatlarida,

mustaqil xatti- harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funksiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. O'z-o'zini anglash hissining tarkib topishi, O'ziga nisbatan go'yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vujudga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagi va istagan temperament tipidagi o'smirlar uchun muhim xususiyatlardir.

Kattalar o'smirlarning foydali jamoa ishlarida muvaffaqiyatga erishishlarida yordam berishlari va bu bilan ularning o'z qadr-qimmatlarini namoyon qilishlariga imkon berishlari lozim. Guruh ko'pincha o'smirda «biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir Yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'stlik juda qadrli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, O'jarlik, tajanglik, O'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari xam mumkin. O'smirlik davrida etakchi faoliyat shaxsiy -intim muloqotdir. O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smir Yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit - bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishdir. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. Ularga mashg'ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, O'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq.

«O'smirlik Yoshining mohiyati shundan iboratki, O'smir birmuncha faolroq ijtimoiy muhitga etilgan bo'lib, bolalik chog'ida vujudga kelgan eski munosabatlarni buzib, ana shu muhit uchun kurasha boshlaydi». Har bir o'smir muvaffaqiyatli ishlar bilan tevarak-atrofdagi odamlar o'rtasida o'z shaxsini tasdiqlashga intiladi.

Kattalar o'smirlarning foydali jamoa ishlarida muvaffaqiyatga erishishlarida yordam berishlari va bu bilan ularning o'z qadr-qimmatlarini namoyon qilishlariga imkon berishlari lozim. Aks holda ular boshqalarning oldida o'zlarini yuqori qo'yishlari, bepisandlik qilishlari mumkin. Buni ular O'zlarining qadr-qimmatlari tan olinmaganligi yoki kamsitilganligiga qarshi chiqib, salbiy ishlar va xatti-harakatlar orqali amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay, O'z fikrlarini O'tkazishga harakat qiladilar. O'smirlarga farosatlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik va uzoqni ko'ra bilishlik kabi psixik xususiyatlar hali etishmaydi. Tengdoshlari, Shuningdek, sinfdoshlari guruhida O'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruhiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh ko'pincha o'smirda «biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir Yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'stlik juda qadrli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarning hol-ahvol so'rashishi va

ko'rishishlarida (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgana ana shunday juda yaqin munosabatlar, O'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarining izi inson qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Shuningdek, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishlari yoki ularni yoqtirishlari umuman shart emas. Kòpchilik odamlar o'zlari yoqtirgan insonlargazulm òtkazadilar. Hozirda kòpchilik tomonidan "Agressiya – boshqa tirik jonzotga ubuni istamagan vaziyatda haqiqat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qòygan xulq atvorning har qanday shakli", degan tushuncha qabul qilingan. Psixologiyada agressiv xulq– atvor quyidagicha klassifikatsiya qilinadi: 1. Agressiyaning dardmanlik darajasidagi alomatlar (tutaqib ketish, jahl kelganda òzini yòqotib qòyish). 2. Agressiyaning jismoniy o'gzaki va boshqa butun jamiyat uchun nomaqbul axloq qonun – qoidalari bilan bog'liq shakllari (odatda, ular ijtimoiylashuv xususiyatlari, aksilijtimoiy xulq – atvor me'yorlarining mustahkamlanishi bilan bog'liq bòladi). 3. Jamiyatda qabul qilingan axloq qonun – qoidalarini yetarlicha òzlashtirilmaganligi yoki xatti – harakatlarini idora etish imkonini beruvchi xususiy sifatlarni tòliq shakllanganligi bilan bog'liq agressiyaning turli kòrinishlari (ta'lim – tarbiya kòrmaganlik). 4. Ayrim kuzatuvchilar tomonidan agressivlik haq – huquqlarini poymol qilish, birovga ziyon yetkazish gumonini paydo qiladigan, boshqa bir kuzatuvchilar tomonidan qat'iylik, faollik sifatida talqin qiladigan barcha xatti – harakatlar. Agressiv xulq – atvor bu inson bilan vaziyatning òzaro ta'siri natijasidir. Agressivlik sifat va miqdor tavsiflariga ega bòlib, barcha xossalar kabi u ham turli darajalarda ifodalanadi. Deyarli to'liq nomavjudlikdan to yetarlicha rivojlangan agressivlikkacha namoyon bòladi. Agressiv xulq – atvor asosini agressivlik motivi tashkil etadi.

Xulosa: O'smirlik davrida misol tariqasida maktab vaqtida O'quvchi qaysar, O'jar, gapga quloq solmaydi, birovning maslahatini eshitgisi kelmay qoladi. Nima ish aytilsa ham, uning teskarisini bajaradi. Qilma, olma, qo'yma degan buyruqni bir marta bo'lsa ham teskari qilib, bajarib ko'rgisi keladi. Chunki, ularda taqlidchanlik shakllanib, egosentrizm kabi xususiyatlari, samoatsenkasi ancha yuqori bo'ladi. Demak, bu davrda imkon qadar ular bilan kelishishga harakat qilish zarur. Tortishib, ularni jazolab muammoning yechimini hal qilib bo'lmaydi.

References:

1. elib.buxdu.uz
2. cyberleninka.ru
3. jdpu.uz
4. reja.tdpu.uz
5. azkurs.org
6. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq O'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIYA. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 30–31. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7869857>
7. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq O'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). IJTIMOYIY TARMOQLARIDA "OMMAVIY MADANIYATGA" QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 27–29. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7869831>